

## Xorazm viloyati sharoitida dorivor o'simliklardan olingan biologik faol qo'shimchalar

Madaniylashtirilgan istiqbolli o'simliklardan tukli erva, dorivor tirnoqgul, Turkiston arslonquyrug'i, dag'al dalachoy va kiyik o'ti kabi dorivor o'simliklar Xorazm Ma'mun akademiyasi eksperimental bazasi sharoitida ekilib, ularning morfo-fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari o'rganildi va ular asosida yangi biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqildi.



O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida 3 ta turdagi dori preparatlarining namuna variantlari ("Xiva" balzami, "Ma'munshox" va "Tuz va tosh haydovchi" fitochoylari) ishlab chiqildi. Ushbu dori vositalari profilaktik preparat sifatida tavsiya qilinib, o'zining tarkibida Xorazm Ma'mun akademiyasining dorivor o'simliklar bog'ida yetishtirilgan 20 ga yaqin dorivor o'simliklar saqlaydi.



Ushbu balzam va fitochoylar asosan organizmni umumiy tetiklashtiruvchi, tinchlantiruvchi hamda organizmni turli zo'riqish holatlarga nisbatan chidamliligini oshiruvchi va immun tizimini mustahkamlovchi, oshqozon-ichak ish faoliyatlarini yaxshilovchi qo'shimcha oziqa sifatida tavsiya qilinadi. Organizmda moddalar almashuvini, shuningdek, oshqozon, ichak, jigarning ish faoliyatini yaxshilash xususiyatlariga ega.